O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
NAMANGAN SHAHAR HOKIMINING

Q A R O R I

Namangan shahri, Xurriyat ko'chasi, 66-uy

2023 - yil 13 - noyabr 428-6-91-Q/23 Namangan shahar hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi va “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-son qaroriga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam soni belgilangan tashkilotlar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam soni belgilangan tashkilotlar, ilovada ko‘rsatilgan ish o‘rinlari o‘rnatilgan tartibda zaxiraga qo‘yilsin.

3. Kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-son qaroriga muvofiq, joylarda mazkur qaror talablari bajarilmaganligi

uchun shaxsan javob berishliklari haqida ogohlantirilsin.

4. Shahar hokimligining axborot xizmati (R.Mamadaliyev)ga ushbu qaror “Namangan sadosi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda rasmiy e’lon qilinganidan keyin bir kun ichida Namangan shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oydan keyin kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari D.Umurzakov, Namangan shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i A.Turg‘unov zimmalariga yuklatilsin.

Shahar hokimi **G‘.Djamalov**

Namangan shahar hokimining
2023-yil 13-noyabrdagi
428-6-91-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

Komissiya tarkibi

Komissiya raisi:

1.	D.Umurzakov	-	Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari

Komissiya raisining o‘rinbosari:

2.	A.Turg‘unov	-	Shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i

Komissiya a’zolari:

3.	D.Abduraximova	-	Shahar hokimining o‘rinbosari
4.	V.G‘iyasov	-	Shahar hokimligi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiya mas’ul kotibi
5.	X.Yusupova	-	Shahar Maktabgacha maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
6.	X.Mufatxanov	-	Shahar hokimligi huzuridagi jazoni ijro etish joylardan bo‘shatilgan shaxslarda ijtimoiy ko‘nikmalar hosil qilish markazi rahbari o‘rinbosari

Komissiya kotibi:

7.	D.Turg‘unov	-	Shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandligiga ko‘maklashish bo‘limi ishsizlarni ishga joylashtirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i

Izoh: *Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ularning o‘rniga yangi tayinlangan shaxslar komissiya a’zosi hisoblanadi.*

Namangan shahar hokimining
2023-yil 13-noyabrdagi
428-6-91-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam soni belgilangan tashkilotlar ro‘yxati

№	Tashkilot	Jami ishlovchilar soni	Yaratilishi lozim bo‘lgan ish o‘rinlar soni	Shu jumladan														
				Nogironlar uchun (3 foiz)		Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun		O‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali otaonalar uchun		Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun		Safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun		Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun		Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan odam savdosi qurbonlari uchun		
				soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	soni	foizi	foizi
1	Viloyat narkologiya dispanseri	157	13,0	5,0	3,2	3,0	1,9	2,0	1,3	1,0	0,6	1,0	0,6	0,5	0,3	0,5	0,3	0,3
2	Namangan viloyati Fiziatriya va pulmonologiya markazia	450	35,0	13,5	3,0	11,0	2,4	5,0	1,1	2,5	0,6	1,0	0,2	1,0	0,2	1,0	0,2	0,2
3	Namangan shahar 19-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	57	4,5	2,0	3,5	1,5	2,6	0,5	0,9	0,5	0,9	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
4	Namangan shahar to‘g‘riq kompleksi	471	35,0	14,0	3,0	12,0	2,5	6,5	1,4	1,5	0,3	0,5	0,1	0,5	0,1	0,0	0,0	0,0
5	Namangan shahar 29-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	100	8,0	3,0	3,0	2,0	2,0	1,5	1,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0
6	Viloyat veterinariya laboratoriya bo‘limi	43	3,5	1,5	3,5	1,0	2,3	0,5	1,2	0,5	1,2	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
7	Namangan viloyati bolalar sil kasalligiga qarshi kurashish sanatoriyasi	128	10,5	4,0	3,1	2,5	2,0	2,0	1,6	1,0	0,8	0,5	0,4	0,5	0,4	0,0	0,0	0,0
8	Namangan shahar 76-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	100	8,0	3,0	3,0	2,0	2,0	1,5	1,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0
9	Namangan shahar 37-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	128	10,5	4,0	3,1	2,5	2,0	2,0	1,6	1,0	0,8	0,5	0,4	0,5	0,4	0,0	0,0	0,0
10	Namangan shahar 1-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	157	12,0	5,0	3,2	3,0	1,9	2,0	1,3	0,5	0,3	0,5	0,3	0,5	0,3	0,5	0,3	0,3
11	Namangan shahar 22-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	57	4,5	2,0	3,5	1,5	2,6	0,5	0,9	0,5	0,9	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
12	Namangan shahar 38-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	86	6,5	3,0	3,5	2,0	2,3	1,0	1,2	0,5	0,6	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
13	Respublika tez tibbiy yordam markazi Namangan viloyati filiali	4553	391,0	135,0	3,0	95,0	2,1	75,0	1,6	59,0	1,3	15,0	0,3	12,0	0,3	0,0	0,0	0,0
14	Namangan shahar sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi	57	4,5	2,0	3,5	1,5	2,6	0,5	0,9	0,5	0,9	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
15	Namangan shahar 50-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	114	9,0	3,5	3,1	2,5	2,2	1,5	1,3	0,5	0,4	0,5	0,4	0,5	0,4	0,0	0,0	0,0
16	Namangan shahar 44-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	100	8,0	3,0	3,0	2,0	2,0	1,5	1,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0
17	Namangan shahar 43-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	128	10,5	4,0	3,1	3,0	2,3	2,0	1,6	1,0	0,8	0,5	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
18	Namangan davlat universiteti	1127	99,0	34,0	3,0	24,0	2,1	14,0	1,2	11,0	1,0	9,0	0,8	5,0	0,4	2,0	0,2	0,2
19	Namangan shahar 4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	100	8,0	3,0	3,0	2,0	2,0	1,5	1,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	0,0	0,0	0,0
20	Namangan shahar 88-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	57	4,5	2,0	3,5	1,5	2,6	0,5	0,9	0,5	0,9	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
21	Namangan shahar 15-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	114	9,0	3,5	3,1	2,0	1,8	1,5	1,3	0,5	0,4	0,5	0,4	0,5	0,4	0,5	0,4	0,4
22	1-DMI	86	6,5	3,0	3,5	2,0	2,3	1,0	1,2	0,5	0,6	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
23	Namangan shahar 31-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	157	12,0	5,0	3,2	3,5	2,2	1,5	1,0	0,5	0,3	0,5	0,3	0,5	0,3	0,5	0,3	0,3
24	Namangan shahar 27-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	178	13,5	5,5	3,1	4,0	2,2	2,0	1,1	0,5	0,3	0,5	0,3	0,5	0,3	0,5	0,3	0,3
25	Namangan shahar 13-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	79	6,0	2,5	3,2	2,0	2,5	1,0	1,3	0,0	0,0	0,5	0,6	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
26	Namangan shahar 66-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	57	4,5	2,0	3,5	1,5	2,6	0,5	0,9	0,5	0,9	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
27	Namangan shahar 28-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	79	6,0	2,5	3,2	2,0	2,5	1,0	1,3	0,5	0,6	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
28	Namangan shahar 41-umumiy o‘rta ta’im maktabi	79	6,0	2,5	3,2	2,0	2,5	1,0	1,3	0,5	0,6	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
29	2-sonli BUSM	128	10,5	4,0	3,1	3,0	2,3	1,5	1,2	1,0	0,8	0,5	0,4	0,5	0,4	0,0	0,0	0,0
30	Namangan hududiy elektr tarmoqlari korxonasi aksiyadorlik jamiyati	1467	115,0	44,0	3,0	38,0	2,6	16,0	1,1	9,0	0,6	3,0	0,2	3,0	0,2	2,0	0,1	0,1
31	33-MTT	43	3,5	1,5	3,5	1,0	2,3	0,5	1,2	0,5	1,2	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
32	Namangan shahar 17-sonli oilaviy poliklinikasi	86	6,5	3,0	3,5	2,0	2,3	1,0	1,2	0,5	0,6	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
33	Namangan shahar 5-sonli oilaviy poliklinika	79	6,0	2,5	3,2	2,0	2,5	1,0	1,3	0,5	0,6	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
34	Namangan shahar tibbiyot birlashmasi	1103	86,0	33,5	3,0	25,0	2,3	16,0	1,5	3,5	0,3	5,0	0,5	3,0	0,3	0,0	0,0	0,0
35	Namangan shahar14-oila poliklinikasi	157	12,0	5,0	3,2	3,5	2,2	1,5	1,0	0,5	0,3	0,5	0,3	0,5	0,3	0,5	0,3	0,5
36	Namangan shahar 16-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	114	8,5	3,5	3,1	2,5	2,2	1,5	1,3	0,5	0,4	0,0	0,0	0,0	0,0	0,5	0,4	0,4
37	Namangan shahar 30-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	86	6,5	3,0	3,5	2,0	2,3	1,0	1,2	0,5	0,6	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
38	Namangan shahar 43-umumiy o‘rta ta’lim maktabi	128	10,5	4,0	3,1	3,0	2,3	1,5	1,2	1,0	0,8	0,5	0,4	0,5	0,4	0,0	0,0	0,0
Jami		**12390**	**1014,0**	**377,0**	**3,0**	**276,5**	**2,2**	**172,5**	**1,4**	**105,0**	**0,8**	**42,5**	**0,3**	**32,0**	**0,8**	**8,5**	**0,1**	**0,1**